



VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!



Fidoyilik – Vatanga xizmat demak!

Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz

Xalqimizning
eng katta
qudrati –
mehr-oqibat,
saxovat va
birdamlikda.

**Shavkat
MIRZIYOYEV.**

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИ ШАВКАТ МИРЗИЁЕВНИНГ ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ДАВЛАТ МУСТАҚИЛЛИГИНИНГ ЎТТИЗ ТЎРТ ЙИЛЛИГИГА БАҒИШЛАНГАН ТАНТАНАЛИ МАРОСИМДАГИ НУТҚИ

**29 avgust kuni poytaxtimizdagi “Yangi Ўzbekiston” boʻgida mamlakatimiz
davlat mustaqilligining oʻttiz toʻrt yilligiga bagʻishlangan bayram
tadbiri bʻlib oʻtdi.**

**Marosimda Ўzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyev
ishirok etdi va nutq soʻzlagi.**

**Assalomu aleykum, qadrlar
vatandoshlar!**

**Muxtarlar mehmonlar!
Xonimlar va janoblari!**

Siz, azizlarni, kўpmillatli butun
xalqimizni, horijdagi vatandoshlarimizni
Ўzbekiston mustaqilligining oʻttiz toʻrt yillik
shonli sanasi bilan chin qalbmizdan tabriklayman.

Istiqbol bayrami barchamizga muborak bʻlsin!
Xurmatli dʻstlar!

Butun, mana shu ulugʻ ayem kunlarida hammamiz
bir xatli qahqatni chukur xis etmoqdamiz.
Yangi Ўzbekiston goyasi asosida boshlagan ulkan
islohotlarimiz tufayli mustaqillik bergan
xukuk va erkinliklarni har bir yurtoshimiz
uz xatida chukur xis qilib, bu imkoniyatlardan
kenq foydalanmoqda.

Aynan ana shu ulugʻvor goya asosida biz uch ming
yillik boy tarix va madaniyatimizni qaytadan
idrok etdik. Yurtimiz zaminiidagi Birinchi va
Ikkinchi Renessans anʻanalarini rivojlantirib,
Uchinchi Renessans sari dadil amaliy qadamlar
kuyumoqdamiz.

Ishonchim komil, bu yilda Yangi Ўzbekiston
davlati, Yangi Ўzbekiston jamiyati buyuk
tariximizni yangi – yanada koksak Yifonish davri
bilan bogʻlaydigan mustaqkam kuyirik bʻlib
xizmat qiladi.

Mir Aliyev Navoiy bobomizning “Bu olamni
yatiyishdan maksad – inson edi, uni baxtli kuyish
edi”, degan fikrlarida chukur maʼno mujassam.

Xalqimiz asrlar davomida orzu qilib, kuyarib
uttan inson qadrlari ulugʻlash, uni baxtli qiliyish
– barcha islohotlarimizning maʼno-mazmunini
tashkil qilmoqda.

“Inson qadrlari uchun, inson baxti uchun” degan
ezgu tamoyilga asoslangan Yangi Ўzbekiston goyasi
amalda kudratli xarakatga aйланди.

Dunedagi murakkab vaziyatga qaramasdan,
iktisodiyatimiz 6 foizdan yuqori surʼatlarida
barqaror yusaytgan xalqimiz uz tanlab olgan
yulidan dadil boraʼtgani kuyratmoqda.

Yurtimiz aholisi yilliga yurtacha 700-800 ming
kishiga kuyaymoqda. Mexnat bozoriga har yili
500-600 ming nafar eʼshlar qiriib kelmoqda. Buncha
odamni yuyitish, kasb-xunarli qiliyish, ularga ish
topib berish uz-yuzidan bʻlmaydi, albatta. Buning
uchun muntaзам ishlaydigan tizim, kafoalatli
investitsiya va infратузилма керак.

Shuni oldindan chukur yuyayib, biz bu yunaliyishda
anik dasturlarni qabul qildik. Biz mahallaga
tuyib, yuzini yuzi bанд qilgan tadbirkordan
tortib yirik biznesgacha – barchasini aloxida
endashuv asosida kuyllab-kuyvatlash buyicha tizim
barpo etdik.

Tula ishunch bilan aytishi mumkin, Yangi
Ўzbekistonda tadbirkorlik iktisodiyatni
xarakatga keltiruvchi, oldinga boʻshlovchi katta
kuchga aйланди.

Raqamlarga eʼtibor beraylik: keyingi sakkiy
yilda yalli ichki maxsulotimiz 2 karra oshib,
uttan yilli 115 milliard dollariga, eksport

xajmi 26 milliard dollariga etdi. Yil yakuni
bilan yalli ichki maxsulotimiz 130 milliard
dollar bʻladi. Oltin-valyuta xahirlarimiz
tariximizda ilk bor 48 milliard dollaridan
oshdi, utgan sakkiy yilda yurtimizga qariyb 130
milliard dollar horijiy investitsiyalar qiriib
keladi.

Bularning barchasi islohotlarimiz samarasi,
tarakiyetimizning mustaqkam kafoлатi, nuфузли
molia institutlari va horijiy kompaniyalar
yoksak ishunchi emasmi?

Xalqimizning kuy yungida minglab zamonaviy
korxonalar, ijtimoiy-iktisodiy infратузилма
obyektlari kad rostlamokda. Eʼtibor berin, bu
yil jami 35 milliard dollar investitsiya eʼvaziga
9 mingga yaqin yangi korxona, xizmat kuyratish
majmualari barpo etiladi. Eng ulugʻ bayramimiz
arafasida 4 milliard dollarlik 79 ta yirik
obyekt ishga tuyirildi.

Uttan davrda birgina kichik va yurt
tadbirkorlar sони 2 karra kuyaydi. Bugun uʻshbu
tarmokda 10 milliondan ortiq aholimiz mexnat
qilib, daromad topmoqda.

Biz yil boʻshda 5,5 million aholi bandligini
taʼminlash buyicha katta marra olgan edik. Sakkiy
oidaek 5 millionlik rejani uddaladik.

Eng muximi, islohotlarimizga ishoniib,
shu yilning yuzida chetda ishlayotgan 700 ming
fuqaromiz yurtimizga, uz oilasi bagʻriga qaytdi.

Anʻanamizga kuyra, utgan xafatda tadbirkorlar
bilan ochiq mulokot yutkazib, biznes vakillari
qanday masalani kuytargan bʻlsa, hammasiga echim
topib berdik. Ular uchun 50 trilliон sʻmdan
ortiq yangi resurs, imtiyoz va engilliklar
yatiyishga keliyish, qarorini ham chikardik. Biz
bu ishlarini katiy davom ettiramiz.

Ўzbekiston dunega kenq ochilganidan sʻng
horijiy sayeʼhlar sони utgan yilli 10 million
kiyidan, turizm xizmatlari eksporti esa

3 milliard dollaridan oshdi.

Tariximiz, milliy yuzligimizni tiklash
maksadida buned etilayotgan Islom civilizatsiyasi
markazi, Samarqanddagi Imom Buxoriy ziyaratxohi
kabi ulkan va noeb majmualarda quriyish va
obodonlashirish ishlari yakuni etmoqda.

Ishonchim komil, xalqimizning maʼnaviy
salohiyatiga har tomonlama munosib bʻlgan
bunday betakor obidalar aholimiz va jahon
jamoyatligi uchun yangi va jozibador maskanlar
aylanadi. Bu majmualar tadbirkorlarimizga
sayeʼhlarini yanada kuyrok jalb qiliyishda kuyshimcha
imkoniyatlar eʼshigini ochadi.

Yana bir maksadimiz – xalol ishlagan
tadbirkorlarni kuyllab-kuyvatlash, ularga
imkoniyatlarni kuypaytirishdan iborat.

Shu sababli “Xalol mexnat – xotirjam xat
va farovon jamiyat garovi” degan shior asosida
“yashirin” iktisodiyatni jilovlash buyicha muxim
chora-tadbirlarni amalga oshirmoqdamiz. Bu
jaraenda fuqarolik institutlari, jamoyatlik
nazorati subyektlari, omaviy axborot
vositalari, parlament va mahalliy kenqashlar
yanada faol ishirok etadi.

Qadrlar yurtoshlar!

Iktisodiyatimiz rivojlaniyishi, aholimiz
kuyayishi bilan xavfsiz va barqaror energiya
resurslariga talab ortib bormokda.

Uttan sakkiy yilda abonentlar sони 25 foizga,
yani, kuyshimcha 1 million 600 mingtaga, isteʼmol
xajmi esa 54 foizga eki kuyshimcha 25 milliard
kilovatt soatga oshdi. Shuning uchun biz kelgusi
tarakiyetimizni “yashil” iktisodiyat rivojida
kuyrmokdamiz.

Avvalo, “yashil” energiya ulushini oshirish
buyicha misli kuyrilagan qadamlar kuydik.
Natiqada elektr ishlab chikarish kuvvatlari
2016 yildagi 59 milliard kilovatt soatdan
85 milliard kilovatt soatga etdi, kelgusi yilda

bu 97 milliard kilovatt soatdan ziyadni tashkil
etadi.

Shu yilning yuzida 6,5 milliard kilovatt soat
“yashil” energiya ishlab chikarildi. Eng muximi,
jami generatsiya kuvvatlarida “yashil” energiya
ulushi 30 foizga etdi.

Biz 2030 yilgacha yana 35 milliard dollar
tuygidan-tuygi investitsiya hisobidan “yashil”
energiya ulushini 54 foizga olib chikamiz.

Tabiatta mexrli munosabat orkali kelayach
avlodlarga unumdor er, zillol suv, musaffo
xavoga ega bʻlgan guzal Vatanni meros qilib
koldirishni mukaddas burчимiz, deb bilamiz.

Shu maksadga “Yashil makon” umummilliy
loyihasi doirasidagi ishlarimizni yanada
kenqaytiramiz. Bu boraada “Atrof-muxitni asrash
va “yashil” iktisodiyat yilli”da amalga oshirayotgan
katta dasturlarimiz muxim ahamiyat kasb etadi.

Keyingi sakkiy yilda yurtimizda 31 million
kvadrat metr dan ortiq eki qariyb 12 mingta
kuykavatli uy-joy barpo etilgan tarixiy qadam
bʻldi. Shu yilning yuzida “Yangi Ўzbekiston” va
boʻshka massivlarda yana 130 ming xonadonli
zamonaviy uy-joylar quriyib, aholiga
topshiriladi.

2030 yilgacha butun duneda kuyllanayotgan
“yashil shahar” standartlari asosida barcha
shaharlarimizda yashilik darajasini 30 foizga
etkazamiz.

Natiqada mamlakatimiz barqaror energiya
bilan taʼminlanadi, ekologiya, odamlarimiz
salomatligiga zararli taʼsirilar keskin kamaydi.

Shu bilan birga, master rejalar asosida
har bir kishlok va mahallaga shahardagi
kuyayliklarni olib kiramiz. Kichik shaharlarni
zamonaviy infратузилма asosida rivojlantirib,
ularni yangi bosqichga kuytaramiz.

(Davomi 2-sahifa) >>>

ZAHMATLI MEHNATLAR EʼTIROFI

**Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining
tegishli farmonlariga muvofiq
mamlakatimiz mustaqilligining oʻttiz
toʻrt yilligi arafasida turli sohalarida
fidokorona mehnat qilayotgan bir guruh
yurtdoshlarimiz davlatimizning yuksak
orden va medallari bilan taqdirlandi. Ular
orasida 17 nafar samarqandlik fidoyilar
ham bor.**

Viloyat hokimligida mukofotlarni oʻz egalariga
topshirish marosimi boʻlib oʻtdi.

Tadbirda viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz
Boboyev ishtirok etdi va yigʻilganlarni bayram bilan
qutladi.

– Yangi Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan
islohotlar samaradorligi, xalqimiz turmush farovonli-
gi, hududlar obodligini taʼminlashda har biringizning
munosib hissangiz bor, – dedi viloyat rahbari. – Sa-
noat, qurilish, xizmat koʻrsatish, qishloq xoʻjaligi,
tibbiyot, taʼlim va boshqa ijtimoiy sohalarining izchil
rivojlanishida fidoyilik namunalari koʻrsatmoqdasiz.
Ana shu jonkuyarligingiz bugun eng ulugʻ, eng aziz
bayramimizda munosib eʼtirof etilmoqda. Bunday
eʼtibor va ishonch bilan sizlarni tabriklab, kelgusi
ishlaringizga omad tilayman.

Adiz Boboyev davlatimiz rahbari nomidan muko-
fotlarni oʻz egalariga tantanali ravishda topshirdi.

Marosimda soʻzga chiqqanlar yuksak eʼtibor va
eʼtirof uchun minnatdorlik bildirdilar.

– 60 yildan beri turli sohalarida faoliyat olib bor-
dim, – deydi “Doʻstlik” ordeni sohibi Ismat Sanayev.
– 84 yoshdaman. Kuch-gʻayratim bor ekan, xalqim-



ga xizmat qilishdan toʻxtaganim yoʻq. Ayni paytda
Oʻzbekiston Xalq demokratik partiyasi Paxtachi
tumani kengashi raisi vazifasida faoliyat olib boryap-
man. Qolaversa, Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi
aʼzosi. 50 dan ortiq nasriy va nazmiy asarlarim
toʻplangan kitoblarim nashrdan chiqqan. Yana ikkita
kitob ustida ishlayapman. Bugun berilgan mukofot

kuchimga kuch, gʻayratimga gʻayrat qoʻshdi.

– Narpay tumanining Tortuvli mahallasida yashay-
man, – deydi birinchi guruh nogironi Muzaffar Safarov.
– Imkoniyatim cheklangan boʻlsa-da, oʻzimni sogʻlom
odamlardek his qilaman. Oyoqlarim harakatsiz, ammo
qoʻllarim soppa-sogʻ. Boriga shukur qilib yashayman.
Mamlakatimizda yaratilayotgan imkoniyatlardan foy-

dalanib, ustaxona ochdim. Oʻzim qiziqqan yoʻnalish
– maishiy texnikalarni tuzatish bilan shugʻullanaman.
Bugun men uchun juda quvonchli kun. Mustaqillik
bayrami oldidan Prezident farmoniga asosan “Jasorat”
medali bilan taqdirlandim.

**Toʻliq SIDDIQOV,
Fazliddin ROʻZIBOYEV (surat).**

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИ ШАВКАТ МИРЗИЁЕВНИНГ ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ДАВЛАТ МУСТАҚИЛЛИГИНИНГ ЎТТИЗ ТЎРТ ЙИЛЛИГИГА БАҒИШЛАНГАН ТАНТАНАЛИ МАРОСИМДАГИ НУТҚИ

(Давоми. Бошланиши 1-саҳифада).

Азиз ватандошлар!
Биз юртимизда ижтимоий ҳимоя сиёсатининг бутунлай янги моделини яратдик. Бу тизим хонадонларгача кириб боргани, эҳтиёжманд аҳоли билан индивидуал ишлашни йўлга қўйганимиз, “Инсон” марказларини ташкил этганимиз – барча учун тенг имконият яратилган инклюзив жамиятни шакллантиришга хизмат қилмоқда.

Ҳаммамиз бир ҳақиқатни тушуниб олишимиз керак: юртимизда бегона одам ҳам, бегона бола ҳам йўқ. Барчамиз ягона юрт фарзандларимиз, ягона Ватан равнақиға хизмат қиламиз.

Шу маънода, битта бўлса ҳам қийин аҳволға тушиб қолган ҳамюртимиз тақдири барчамизни бирдек ташвишға солиши керак. Чунки, халқимизнинг энг катта қудрати – меҳр-оқибат, саховат ва бирдамликдадир.

Шу борада “Ҳамроҳлик дастури”ға мувофиқ ота-она меҳридан маҳрум бўлган 11 минг нафар болани таълим, касб-хунар, спорт тизимига қамраб олганимиз муҳим натижа бўлди. Эҳтиёжманд оилаларнинг 2,5 миллиондан зиёд аъзоларига 110 турдаги ёрдам ва хизматлар кўрсатиш йўлга қўйилди. Умуман, бу йилнинг ўзида ёрдамға муҳтож аҳолини ижтимоий ҳимоя қилишға 19 триллион сўм маблағ йўналтиряпмиз.

Булларнинг барчаси ўз самарасини бериб, юртимизда камбағаллик даражасини 6,8 фоизға туширишға эришдик. Халқаро ташкилотлар 5-6 йил олдин ушбу рақамни 35 фоиз атрофида баҳолаганини ҳисобға олсак, қисқа даврда бу борада қандай катта йўлни босиб ўтганимиз яққол аён бўлади.

Биз тадбиркорлиқни ривожлантириш, кексалар, хотин-қизлар, ёшлар, ижтимоий ёрдамға муҳтож инсонларни қўллаб-қувватлаш, камбағаллиқни қисқартириш бўйича ишларимизға янги шиддат берамиз.

Халқимиз учун муносиб шароитлар яратиш борасидаги ислохотларимиз бир дақиқа ҳам тўхтамайди.

Муҳтарам дўстлар!
Сифатли таълим-тарбия, аҳолиимиз саломатлиги – келгуси тараққиётимизни ҳал қиладиган энг муҳим масала.

Сўнгги саккиз йилда хусусий сектор билан бирга боғчалардаги ўринларни 2,5 миллионга, камровни 78 фоизға етказдик. Янги мактаблар қурганимиз, борларини кенгайтирганимиз ҳисобига қўшимча 1 миллионга ўқувчи ўрни яратилди.

Замонавий дарслиқлар, илғор педагогик технологиялар асосида мактаб таълимига янги мазмун, янги сифат кириб келмоқда.

Шу даврда олий таълимда ҳам кескин бурилиш ясаб, камровни 9 фоиздан 42 фоизға етказдик. Айниқса, талабаларнинг 53 фоизини хотин-қизларимиз ташкил этаётгани алоҳида эътиборға сазовор.

Ҳозирги вақтда дунёдаги топ олийгоҳларда 2 мингдан зиёд талабаларимиз тахсил олмоқда. Улардан 750 нафари “Эл-юрт умиди” жамғармаси орқали давлат ҳисобидан ўқимоқда.

Ўтган йили юртимиз ёшлари топ-500 талик олийгоҳларға кириш бўйича Марказий Осиёда биринчи ўринни эгаллагани барчамизни албатта қувонтиради.

Айниқса, фарзандлари дунёдаги энг нуфузли университетларда таълим олаётган ота-оналарнинг хурсандчилигини сўз билан ифода қилиб бўлмайди.

Шу ўринда бу йилдан бошлаб мактабларимизда катта бир ижобий ҳолат кўзға ташланаётганини алоҳида таъкидлаб айтмоқчиман. Яъни, юртимиздаги 3 та мактаб олийгоҳларға кириш бўйича 100 фоизлик натижаға эришди. Булар – Қорақўл туманидаги мактаб-интернат, Навоий шаҳридаги 1-сонли ихтисослашган мактаб-интернат, Жиззах шаҳридаги Ҳамид Олимжон ва Зулфия номидаги ижод мактаби.

Бу, албатта, “Янги Ўзбекистон мактаб оstonасидан бошланади” деган эзгу ғоямизнинг амалдаги ифодасидир. Ишонаман, бундай натижалардан юртимиздаги бошқа мактаблар ҳам албатта ўрнак олади. Барча таълим даргоҳларига Учинчи Ренессанс нафаси янада кучлироқ кириб боради.

Сўнгги йилларда тиббиёт учун маблағларни 6 карра оширдик, сифатли тиббий хизматларни маҳаллагача туширдик. Одамларимиз юқори технологик тиббий хизматлар учун олдин фақат пойтахтға келарди. Ҳозир бундай амалиётларнинг 400 дан ортиғи вилоят ва туманларнинг ўзида бажарилмоқда. Касалликларни профилактика қилиш, аҳоли ўртасида соғлом ҳаёт тарзини қарор топтиришға катта аҳамият қаратяпмиз.

Аҳолининг турмуш шароитлари яхшиланиб бораётгани натижасида ўртача умр кўриш даражаси 73,8 ёшдан 75,1 ёшға узайди.

Биз таълим-тарбия учун, аҳоли саломатлиги учун, муаллим ва шифокорларни қўллаб-қувватлаш учун қанча куч ва қанча маблағ керак бўлса, барчасини сафарбар этамиз!

Кадрли юртдошлар!
Бугунги ёшларимизнинг овози, ғоя ва ташаббуслари, куч-ғайрати барча соҳа ва тармоқларға чуқур кириб бормоқда. Улар халқимизнинг неча йиллик орзу-армонларини реал ҳақиқатға айлантирмоқда.

Ёшларимизнинг замонавий билим ва касб-хунарларни, она тили билан бирга чет тилларини пухта ўрганишлари учун имкониятлар тобора кенгайиб бормоқда.

Бугун давранимизда саноат, сервис, қишлоқ хўжалиги, IT, илм-фан, маданият ва спортда катта ютуқларға эришаётган ўғил-қизларимизни кўриб турганимдан хурсандман.

Мана, футбол бўйича миллий терма жамоамиз мамлакатимиз тарихида илк бор жаҳон чемпионати йўналимсини қўлга киритиб, кўп йиллик орзу-умидимизни рўёбға чиқарди.

Талаба ёшларимиз эса Халқаро ёзги универсиада ўйинларида 116 та давлат орасида илк бор топ-15 таликка кирди, Марказий Осиёда биринчи ўринни эгаллади.

Ушбу байрам арафасида 19 ва 22 ёшли боксчиларимиз Осиё чемпиони деган юксак унвонға сазовор бўлиб, ўзбек бокс мактабининг шуҳратини дунёға яна бир бор намоён этди.

Соғлом ва баркамол авлодни тарбиялаш, Ўзбекистонни чинакам спорт мамлакатига айлантириш мақсадида истиқболли ўғил-қизларимизға атаб Тошкентда улкан Олимпия шаҳарчасини барпо этдик.

Мамлакатимиз тарихида биринчи марта замонавий таълим ва билим берадиган Футбол академияси қад кўтарди.

Ишончим комил, замонавий спорт архитектурасининг ноёб дурдонаси бўлган ушбу мажмуалар минглаб бўлғуси чемпионларимиз учун юксак парвоз майдониға айланади.

Шу йилнинг ўзида ёшларимиз нуфузли халқаро фан олимпиадаларида 2 та олтин, 8 та кумуш, 5 та бронза медалини қўлга киритди. Биз Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги мамлакатлари ўртасида кимёдан – иккинчи, математика ва иктисодиётда – учинчи, IT ва география бўйича тўртинчи ўринни эгаллаган ўғил-қизларимиз тимсолида бўлғуси хоразмийлар, берунийлар, ибн синоларни кўраимиз.

Сафлари тобора кенгайиб бораётган бундай интилувчан, истеъдодли ёшлар – Янги Ўзбекистоннинг олтин авлоди, ғуруримиз тимсолидир.

Бугунги унутилмас дамларда мен бутун Ўзбекистон ёшларига қарата айтмоқчиман.

Азиз фарзандларим, доимо ёдда тутинг: бахт – интилганники, ғалаба – курашганники! Келажақни мардлар, тарихни ғойиблар яратади. Ҳамиша олдинға қараб интилинг, баҳодир ўғлонларим, оқила қизларим!

Сизларнинг эзгу ишларингизда Ватан, халқ, Президент барчангизға ҳамиша ишончли таянч ва суянч бўлади.

Ҳўрматли юртдошлар!
Янги Ўзбекистон инсон қадрни ўстувор бўлган ҳуқуқий давлат ва шундай бўлиб қолади.

Биз одил судловға эришиш учун суд ишларини тўлиқ рақамлаштириш, инсон омилини камайтириб, сунъий интеллектдан кенг фойдаланиш борасида фаол иш олиб бормоқдамиз. Иқтисодий ва маъмурий ишлар бўйича суд биносига бориб ўтиришға ҳожат қолмайди – тарафлар судда онлайн иштирок этади, судларда очиклик, ошкоралик таъминланади. Қисқача айтганда, мамлакатимиз “рақамлашган ва адолатли суд даври” оstonасида турибди, десак, муболаға бўлмайди.

Охириғи уч йилда судланган шахсларнинг 70 фоизига озодлиқдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлмаган жазолар тайинланди. Уч мингға яқин фуқароға эса оқлов ҳукми чиқарилди. Жазо муддатини ўтаётган ва тузалиш йўлиға қатъий кирган уч мингдан зиёд юртдошимиз афв этилди.

Куни кеча яна ана шундай 523 нафар ҳамюртимизни ўз оиласи бағриға қайтариш бўйича фармонни имзоладим.

Бундай тарихий қадамлар вақтинчалик кампания эмас, балки давлат сиёсати даражасидаги узлуксиз жараёндир. Биз “Ватан учун, миллат учун, халқ учун!” деган эзгу ғоя асосида бу ишларимизни янги, юксак босқичға олиб чиқамиз.

Халқимиз фаровонлиғиға салбий таъсир қилаётган коррупция, монополия, бюрократия, дабдабазолик, маънавий таҳдидларға қарши курашни кескин давом эттираимиз.

Муҳтарам юртдошлар!
Жаҳонда геосиёсий вазият ўта кескин тус олаётганини барчамиз кўриб турибмиз. Бундай таҳликали даврда Ўзбекистоннинг сиёсий йўли қандай бўлиши керак? Шиддат билан ўзгараётган халқаро майдонда ўзимизға муносиб ўринни эгаллаш учун нима қилишимиз зарур? Бу саволлар ҳар бир юртдошимизни ўйлантиради, албатта.

Ҳозирги мураккаб шароитни ҳисобға олиб, мустақиллигини, юртимиздаги тинчлик, миллатлар ва динлар ўртасида ҳамжиҳатлиқни мустаҳкамлаш учун келгусида ҳам бор куч ва имкониятларимизни сафарбар этамиз.

Бугун Ўзбекистоннинг овози минтақавий ва халқаро майдонда тобора баланд янграмоқда. Юртимиз жаҳондаги кўплаб нуфузли саммитлар, халқаро форумлар ўтадиган сиёсий марказлардан бириға айланди. Бу анжуманлар Ўзбекистоннинг дунё аҳлини тинчлик ва ҳамкорликка чорлайдиган эзгу даъвати сифатида намоён бўлмоқда.

Шу ўринда ташки сиёсат борасидаги позициямизни яна бир бор таъкидламоқчиман.

Энг аввало, Марказий Осиё давлатлари билан кўп асрлик дўстлик, яхши қўшничилик, стратегик шериклик ва ўзаро ишонч руҳидаги алоқаларимизни сифат жиҳатидан янги босқичға олиб чиқамиз.

Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги, Шанхай ҳамкорлик ташкилоти мамлакатлари билан аънавий, кенг қамровли ва стратегик шериклик алоқаларини янада кенгайтираимиз.

АҚШ, Европа ва бошқа ривожланган давлатлар билан савдо-иқтисодий, молиявий, инвестициявий ва технологик ҳамкорлиқни ривожлантириш, кенг қўламли шериклик ва амалий алоқаларни мустаҳкамлаймиз.

Жанубий Осиё, Яқин ва Ўрта Шарқ, Африка минтақасидаги мамлакатлар билан янги ва истиқболли йўналишларда ўзаро манфаатли ҳамкорлик учун транспорт-логистика йўлақларини яратишға алоҳида эътибор қаратамиз.

Афғонистон минтақавий ва глобал хавфсизлиқнинг муҳим омили эканидан келиб чиқиб, ушбу мамлакатнинг ҳукумати

билан конструктив ва амалий ҳамкорлик олиб бориш зарур, деб биламиз.

Биз Фаластин халқи Бирлашган Миллатлар Ташкилоти резолюциялари билан тасдиқланган ҳуқуққа, яъни, ўзининг мустақил давлатини барпо этиш ҳуқуқиға эға, деган қатъий позициямизни яна бир бор билдирамиз.

Эл-юртимиз уруш ва офатлар вақтида оғир вазиятға тушиб қолган бегуноҳ инсонларға доимо беғараз ёрдам кўрсатиб келган.

Биз инсонпарварлик аънаваларимизға содиқ қолиб, Ўзбекистонға олиб келинган Фаластин фуқароларига меҳмонларимиз сифатида зарур ижтимоий, моддий ва маънавий ёрдам кўрсатиш бўйича махсус фармон қабул қилдик.

Бағрикенг, меҳр-оқибатли халқимиз ушбу фармонда кўзда тутилган чора-тадбирларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаб, уларни амалға оширишда фаол иштирок этади, деб ишонаман. Нуфузли халқаро ва минтақавий ташкилотлар, молия институтлари билан яқин ҳамкорлик доимий эътиборимиз марказида бўлади.

Шу кўнларда Хитойда яна бир йирик анжуман – Шанхай ҳамкорлик ташкилоти саммитида, унинг доирасида кўплаб учрашув ва тадбирларда иштирок этамиз.

Шу сабабли Мустақиллик байрамини бугун сиз, азизлар билан, халқимиз билан биргаликда нишонлаб, эл-юртимиздан дуо олиб, эртаға йўлга чиқишни режа қилганмиз. Ҳеч шубҳасиз, ана шу саммит натижалари ҳам Янги Ўзбекистоннинг дунёдаги ўрни ва мавқеини юксалтиришға, кўп векторли ташки сиёсат бўйича стратегик мақсадларимизни амалға оширишға хизмат қилади.

Фурсатдан фойдаланиб, тантанамизда иштирок этаётган хорижий давлатларнинг муҳтарам элчиларига, халқаро ташкилотлар вакиллариға самарали ҳамкорлик учун чин дилдан миннатдорлик билдираман.

Муҳтарам дўстлар!
Олдимизда қандай синов ва машаққатлар пайдо бўлмасин, биз демократик ислохотларни чуқурлаштириш, миллий бирлик ва ҳамжиҳатлиқни мустаҳкамлаш, халқимизни рози қилиш йўлидан асло ортға қайтмаймиз. Бошлаган буюк ишларимизни албатта охириға етказамиз.

Ҳеч қачон унутмайлик: биз барчамиз битта халқ, битта мамлакат, битта оиламиз!

Ҳаммамизнинг тақдиримиз, келажагимиз, бахтимиз ва ютуғимиз ҳам ягона ва муштарак.

Ҳар бир ватандошимнинг ютуғи – бу менинг ютуғим, ташвиши – менинг ташвишим, деган фикр билан яшасак, ютуғимиз кўпайиб, ташвишимиз албатта камайиб боради.

Афсуски, дунёда турли таҳдид ва хатарлар кўп. Аммо уларға қарши биргаликда, бир тану бир жон бўлиб курашсак, албатта енгамиз.

Эзгу мақсад сари қўлни қўлга бериб, астойдил ҳаракат қилсак, албатта ютамиз.

Ҳар бир юртдошимиз ҳаётнинг ўзи олдимизға қўяётган мана шундай ўткир талабларни чуқур англаб, жонажон Ватанимиз равнақи йўлида сидқидилдан хизмат қилади, деб ишонаман.

Бу улўғ айёмда Янги Ўзбекистонни барпо этишдек олижаноб ишға муносиб ҳисса қўшаётган барча инсонларға, меҳнаткаш, бағрикенг халқимизга миннатдорлик билдириб, чин қалбимдан таъзим қиламан.

Муҳтарам ватандошларим!

Барчангизни Мустақиллик куни билан яна бир бор самимий табриклаб, юрагимдаги энг эзгу тилақларимни изҳор этаман.

Оллоҳ таоло азиз юртимизни ўз паноҳида асрасин!

Ҳар бир инсон, ҳар бир оилаға тинчлик ва хотиржамлик, қўт-барақа, бахт-саодат ҳамиша ёр бўлсин!

**Яшасин Ўзбекистон давлати!
Яшасин Ўзбекистон халқи!**



Qo‘shrabot tumanidagi Navkat mahallasida Adliya vazirligi tomonidan tashkil etilgan “Farovonlik markazi” foydalanishga topshirildi.

Davlatimiz rahbarining “Kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, joriy yilda 1 million nafar aholini kambag‘allikdan chiqarish davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ustuvor vazifasi sifatida belgilangan. Ushbu

maqsadga erishish uchun yurtimizda “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirligi mazkur dasturni hayotga tatbiq etishda Qo‘shrabot tumaniga ko‘maklashmoqda. Vazirlik tomonidan tumandagi mahallalarda aholi bandligini ta‘minlash, kambag‘al oilalar reestriga kiritilgan xonadonlar a‘zolarini kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘rgatish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda.

Navkat mahallasida tashkil etilgan “Farvonlik markazi” ushbu mahalladagi 3 mingdan ziyod aholi uchun Mustaqil-

“Farovonlik markazi” kambag‘allikdan chiqishga yordam beradi

lik bayrami oldidan katta sovg‘a bo‘ldi. Markazda uchta asosiy yo‘nalish – ta‘lim, tadbirkorlik va hunarmandchilik faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

Markazning ochilishida Adliya vaziri A.Toshqulov, Qo‘shrabot tumani hokimligi va jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Akbar Toshqulov yangi markazning imkoniyatlari va afzalliklari haqida gapirib, bu hudud aholisini kambag‘al-likdan chiqarishgagina emas, ularning yaxshi imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishini ta‘kidladi.

Markazda chet tili kurslari tashkil etilgan va tinglovchilar mutlaqo bepul tarzda xorijiy tillarni o‘rganadi. Chet tillarni yaxshi o‘zlashtirgan yoshlarni esa qonuniy yo‘l bilan xorijda ishga borishiga ko‘maklashiladi. IT kurslarida qishloq yoshlari zamonaviy axborot texnologiyalari bo‘yicha bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lib, uydan chiqmasdan dasturlash orqali daromad topishi mumkin. Tikuvchilik, milliy qo‘g‘irchoqlar yasashni o‘rgangan xotin-qizlar o‘z xonadonida bu faoliyat bilan shug‘ullanib, doimiy daromad manbaiga ega bo‘ladi. Santexnika ishlari bugun eng talabgir yumush hisoblanadi. Shuning uchun markazda mahalla yoshlari- ga bu kasb ham o‘rgatiladi.



Qo‘shrabotda uzum va boshqa mevalar- ni quritish, qayta ishlash eng sardaromad faoliyat turlaridan biri bo‘lgani bois markazda uzum va mevanı qayta ishlash, qadoqlash yo‘lga qo‘yilib, eksportga chiqariladi. “Farvonlik markazi” tashkil etilgan kurslar va faoliyat turlari bo‘yicha zarur texnika va jihozlar, kompyuter va o‘quv

qurollari bilan ta‘minlandi. Har bir yo‘nal- ish bo‘yicha malakali mutaxassislar jalb qilingan. Tadbir qatnashchilari yangi markaz faoliyati bilan tanishib, tinglovchilar bilan suhbatlashdi, yoshlarning orzu-intilishlari bilan qiziqdi.

Mansur HASANOV.

Bir paytlar shahar ko'rmaganlar,

dam olish nimaligini bilmaganlar bor edi

Yashash joyimiz Qo'shrabot tumani markazi edi. Bu hududni na shahar deb bo'lardi, na qishloq. Kichik istirohat bog'i, 3-4 ta do'kon va sanoqligina davlat tashkilotlari borligini hisobga olmaganda, qishloqdan farqi yo'q edi. Akam do'stlari bilan tumanning tog'li hududlarida joylashgan Qoratosh qishlog'iga ekskursiyaga chiqqanini maqtanib gapirganda havas qilgandim.



Hech esimdan chiqmaydi, maktabni bitirar chog'imizda, bahor paytida sinfdoshlarimiz bilan Pangat qishlog'iga sayohatga borgandik. Biz bu sayohatni "toqqa ekskursiya" deb bilsak, bizga rahbarlik qilgan kimyo-biologiya fanidan dars beradigan ustozimiz "amaliyot darsi" deb atadi. "Katta"lar eshitib qolsa, gap tegishini aytgandi. O'qituvchimiz aytganidek, amaliyot darsiday bo'lgandi bu sayohat. Toqqa chiqib tushgunimizcha ustozimiz yo'limizda uchragan hayvonmi, o'simlikmi, bizga tanishtirib borardi. Bir tomondan qiziqarli bo'ldi. Ayrim o'simliklar, hayvonlar va qushlarni shu paytgacha ko'rmagandik. Ularning rasmlarini kitoblardagina ko'rganmiz, xolos. Tog'dan tushganimizda tushlik vaqti o'tib bo'lgandi. Soy bo'yidagi bo'zda o'tirib, uyimizdan olib borgan tugunchalarimizni ochib, u-bu narsa yeb, qorin to'yg'azgandek bo'ldik. O'sha

paytdagi eng yaxshi dam olish shunday bo'lgan. Bugun-chi?.. Oradan yillar o'tib, bir ish yuzasidan o'sha Pangat qishlog'iga, yoshligimizda dam olgan hududga bordim. Tabiati o'zgarmagan. Yoz chillasi bo'lishiga qaramasdan salqin va chiroyli. Ammo odamlarining turmush sharoiti keskin o'zgargani ko'rinib turibdi. O'sha paytda qishloqda ohaklangan 2 ta imoratdan boshqa barcha uylar loysuvoq edi. Oqlangan binolarning biri maktab, ikkinchisi yaqinda to'y o'tkazilgan hovli edi. Bugun deyarli barcha uylar, do'konlar, maktab, bog'cha va tibbiyot punktlari zamonaviy ko'rinishda, turfa ranglarda. O'ydim-chuqur bo'lib yotgan yo'llar ravonlashgan. Ahamiyatlisi, Pangatga turizm qishlog'i maqomi berilayotgan ekan. Yoshligimizda dam olgan joyimiz so'lim bir dam olish maskaniga aylantirilibdi. Husniddin Mu-

Mustaqillikning 34 yilligiga



sulmonov oilasi tashkil qilgan bu maskanda xordiq chiqaruvchilar orasida nafaqat qo'shrabotliklar, mamlakatimizning turli hududlaridan, hatto boshqa davlatlardan kelayotgan sayyohlarning borligi qononarlidir.

Bundan 35 yil ilgari Toshkent politexnika instituti tog'-kon metallurgiya fakultetini tamomlagan sobiq kursdoshlar shu qishloqda diydorlashibdi.

- Bu uchrashuvni kun sanab kutdim, - deydi qoraqalpog'istonlikBerdaq Ibragimov. - Shunday so'lim go'shada dam olayotganimizdan xursandmiz. Turli hududlardan, Rossiyadan, Tojikistondan kelgan do'stlarimiz bor. Kelgusi uchrashuvni Nukusda o'tkazishni rejalashtiryapmiz. Bizda maqtanadigan Pangatdagiday tabiat yo'q, ammo qori uylarimizda o'tirib dam olamiz.

- Keyingi yillarda ikki davlat - Tojikiston va O'zbekiston o'rtasidagi do'stlik aloqalari mustahkamlangani uchun ham biz bugun emin-erkin shu joyda mehmon bo'lib turibmiz, - deydi tojikistonlik Nasimjon Soliyev. - Bu yerga qo'shrabotlik o'rtog'im Komiljon Eshqobilovning taklifiga binoan bir guruh do'stlar oila a'zolarimiz bilan keldik. Tabiati juda go'zal ekan. Toza havosidan to'yib-to'yib nafas olaypmiz.

Bu yerda sokin oqayotgan soy, suv ustidagi so'rilar, qishloqning ko'm-ko'k osmonida suzayotgan parqu bulutlar kishiga boshqacha zavq beradi.

Bir paytlar bunday joylar bo'lsa ham borligidan ko'pchilik bexabar bo'lgan. Xabari borlar ham bu so'lim go'shalarida dam olishni bilmagan. Shaharda yashaydiganlar orasida qishloqni ko'rmaganlar, qishloqda yashaydiganlar orasida esa shaharga bormaganlar talaygina edi.

Bugun shahar ko'rmaganlar, dam olish nimaligini bilmaganlar qolmadi deyarli. Ayniqsa, yozning issiq kunlarida shaharliklar o'lis qishloqlarda, tabiat qo'ynida dam olishni o'rgandi. O'lis qishloq yoshlari esa shaharlardagi, hatto xorijdagi ta'lim muassasalarida o'qiyapti, nufuzli tashkilotlarda ishlayapti. Ularning ortidan ota-onalari, yaqinlari ham katta-katta shaharlarga, davlatlarga sayohatga chiqadigan bo'ldi.

Bularning bari mustaqillik mevasidir, ayniqsa, keyingi yillarda yaratilayotgan imkoniyatlar samarasidir.

To'liqin SIDDIQOV,
"Zarafshon" muxbiri.

Bugun O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, iqtisodiy yuksalish va ulkan islohotlar mamlakatiga aylandi. Prezidentimiz boshchiligidayurtimiz hayotida yangi davr, yangi sahifalar ochildi. Aholi turmush darajasi yanada yuksalib, shahar va qishloqlarimiz obod bo'lib bormoqda. Keyingi 5 yil davomida islohotlar va yangilanishlar jarayonida yirik jamoat tashkiloti bo'lgan kasaba uyushmalari ham faol ishtirok etib kelmoqda. Bu davrda Yangi O'zbekistonning yangi kasaba uyushmalari shakllandi va islohotlarning faol ishtirokchisiga aylandi.

Yangi O'zbekistonning yangi kasaba uyushmalari

ertamiz egalari bilan qanday ishlayapti?

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining viloyat kengashi tizimidagi 4212 korxona-tashkilot va muassasalarda ishlovchi 761205 nafar xodimning 275780 nafarini 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi.

Ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida viloyat yoshlar ishlari boshqarmasi bilan hamkorlikda yoshlarga o'ld davlat siyosati sohasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan yillik dastur ishlab chiqildi.

Dastur asosida 265 ta tadbir o'tkazilib, 18 ming 750 nafar ishchi-xodim, jumladan, 17 ming nafar yosh mehnatkashlar jalb etildi. Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan ijtimoiy himoyaga muhtoj, iqtidorli talabalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ta'sis etilgan "Kasaba uyushmalari stipendiyasi" bo'yicha har bir hududdan bir nafardan talabalar ro'yxati shakllantirilib, g'olib deb topilgan Ra'noxon Latipovaga stipendiya to'landi.

Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida tahsil oladigan faol yoshlardan 7 nafariga kasaba uyushmalari tomonidan 74,2 million so'm stipendiya ajratildi hamda 7 nafar kasaba uyushmasi a'zosi bo'lgan faol yoshlar uchun sanatoriylarga bepul yo'llanma berildi.

Tashkilotlardagi yosh xodimlarning tashabbus va qiziqishlarini yaqindan o'rganish hamda ularning rahbariyat bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotini yo'lga qo'yish maqsadida joriy yilda Samarqand davlat chet tillar institutida, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida, yoshlar ishlari boshqarmasida uchrashuvlar o'tkazildi. Uchrashuvlarda yoshlar o'zlarini qiziqitirgan savollari, muammolari va takliflarini bildirdi.

Bundan tashqari, "Men donorman" xayriya aksiyasi, yoshlarda vatanparvarlik, yurtga sadoqat, halollik va mardlik tuyg'ularini mustahkamlashga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, "Ekoturizm" aksiyasi o'tkazildi.

Nuroniylar va mehnat faxriylari holidan xabar olish orqali yoshlar ongida oila muqaddasligi, milliy qadriyatlariga sodiqlik g'oyalari shakllantirish maqsadida "Nuroniylar e'zozimizda" nomli uchrashuv va davra suhbatlari uyushtirildi.

Tashkilotdagi yosh xodimlarga milliy qadriyatlarimizni singdirish va tarixga bo'lgan hurmatini oshirish maqsadida mamlakatimizning tarixiy obida hamda noyob ilmiy obyekt va maskanlariga sayohatlar tashkil etildi.

Mehnat jamoalaridagi yosh xodimlar o'rtasida o'tkazilgan "Zakovat" intellektual o'yinlari hamda shaxmat musobaqalari o'zaro ahillik garovi bo'lmoqda.

O'zbekiston kasaba uyushmalari harakatining 120 yillik yubileyi hamda "8-mart - Xalqaro xotin-qizlar kuni" munosabati bilan korxona-tashkilot va muassasalarda faoliyat ko'rsatayotgan xotin-qizlar (35 yoshgacha) o'rtasida sportning voleybol turi bo'yicha o'tkazilgan sport musobaqalarida olti mingga yaqin opa-singillarimiz bellashdi. Shu bilan birga, 1815 nafar yoshlar teatrlar tomoshalariga, 1242 nafari muzeylariga, 763 nafari konsert dasturlariga jalb qilindi.

Joylarda jamoa kelishuvlari va shartnomalariga kiritilgan "Yoshlar uchun qo'shimcha imtiyoz va kafolatlar" bo'limi orqali mehnat jamoalarida yosh ishchi-xizmatchilar uchun aniq va kafolatli imtiyozlar berilmoqda. Xususan, joriy yilning birinchi yarmida jamoa shartnomalari orqali 957 ta korxona, tashkilot va muassasa 1387 nafar kam ta'minlangan yosh oila vakillariga 601,2 million so'mlik moddiy yordam ko'rsatdi.

Nodavlat mulk shaklidagi 101 ta korxona va tashkilotlarda mehnat qilayotgan 176 nafar bolali ayolga oylik maoshi saqlangan holda ish vaqti haftasi 35 soatdan oshmaydigan qilib belgilandi.

Oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan 56 nafar iqtidorli, kam ta'minlangan va chin yetim talabalarga ular mehnat qilayotgan 17 ta korxona, tashkilot va muassasa o'quv shartnoma pullarini qisman to'lab berdi.

Shuningdek, safarbarlik xazirasidagi harbiy xizmatga chaqirilishi munosabati bilan 20 nafar yosh xodimga ish beruvchilar tomonidan foizsiz ssudalar berildi.

Qayd etish lozim, joriy yilning fevral-aprel oylarida o'tkazilgan 4211 ta boshlang'ich tashkilotning hisobot-saylov yig'ilishlari (konferensiyalari)da 300 ta boshlang'ich tashkilot raisligiga yoshlar saylandi.

Bundan tashqari, joriy yilgi mavsumda viloyatda 13 ta stasionar ormoghlarda 8000 nafar bolalarni dam oldirish rejalashtirilib, amalda 8 484 nafar o'g'il-qizlar sog'lomlashtirildi.

Ormoghlarda bolalarning qiziqishlarini inobatga olib, chet tili, kompyuter savodxonligi, tikuvchilik va bichuvchilik, yumshoq o'yinchoqlar yasash, raqs va rassomchilik to'garaklari tashkil etildi.

Ormoghlarda 34 nafar SOS O'zbekiston bolalar mahallalari uyushmasi Samarqand filiali tarbiyalanuvchilari hamda 18 nafar oilaviy bolalar uylari tarbiyalanuvchilari bepul sog'lomlashtirildi.

Feruzbek RAZZOQOV, Kasaba uyushmalari federatsiyasining viloyat Kengashi raisining yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi.

Arxiv - o'tmishimiz, tirik tarix

Azal-azaldan tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlarga qoldirish ajdodlarimizning eng ustuvor vazifalaridan biri bo'lib kelgan. Chunki o'tmishni xolisona o'rganish, davlatchilikning rivojlanish bosqichlari haqidagi tasavvur doirasini kengaytirish, haqqoniy tarixni yoritish, shuningdek, tarix fani rivojida arxivlar faoliyatining o'rni beqiyos bo'lgan.

Mustaqillik sharoitida arxivlarga munosabat davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, nafaqat respublika, balki Qoraqalpog'iston Respublikasi, aksariyat viloyatlar, shahar va tumanlarda ham arxiv ishini takomillashtirishga e'tibor qaratilmoqda.

Arxiv xizmati, yurtimizning moddiy-madaniy merosini asrab-avaylash, arxiv manbalarini hisobga olish, saqlash, keng foydalanishni tashkil etish bilan birga, arxiv muassasalari faoliyati va xizmatlarini modernizatsiya qilish hamda axborotlashtirish bo'yicha ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Buning natijasi-da arxiv muassasalari zamonaviy bino, kompyuter jamlanmalari (1992-yilda viloyatda bitta kompyuter jamlanmasi bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda ular soni 65 taga yetgan), nusxa ko'chirish apparatlari, qamqli fotoapparatlar va boshqa zarur orgtexnika vositalari bilan jihozlangandi. Bu texnikalar yordamida hujjatlarning elektron nusxalari yaratilmoqda, elektron pochta yo'lga qo'yildi.

1991-yilda viloyatda 5 ta davlat arxivi va 7 ta idoralararo xo'jalik hisobidagi shaxsiy tarkib hujjatlari arxivi faoliyat yuritgan bo'lsa, 1995-yilda Qo'shrabot va 2000-yilda Past Darg'om tuman davlat arxivlari, 2005-2006-yillarda Toyloq, Oqdaryo, Ishtixon, Kat-taqo'rg'on hamda Paxtach tuman idoralararo xo'jalik hisobidagi shaxsiy tarkib hujjatlari arxivlari ochildi. Bugungi kunda viloyatda 7 ta davlat arxivi va 12 ta idoralararo xo'jalik hisobidagi

shaxsiy tarkib hujjatlari arxivlari va bitta Nurobod tuman filiali viloyatimiz aholisi va tashkilotlariga arxiv xizmati ko'rsatib kelmoqda.

Viloyat arxiv ishi hududiy boshqarmasi tarkibidagi yettita davlat arxivida o'quv zallari mavjud. Bu o'quv zallarda o'zbek xalqining haqqoniy tarixini o'rganish, viloyat, tuman, shaharlarning, tashkilotlarning tashkil bo'lishi, Ikkinchi jahon urushi davrida ko'chirib kelingan zavod va fabrikalar hamda evakuatsiya qilingan xalqlar tarixiga oid hujjatlar saqlab kelinmoqda va undan yurtdoshlarimiz hamda xorijliklar foydalanmoqda.

Viloyat davlat arxivida 1991-yilda 591680 ming saqlov birligidagi hujjatlar saqlangan bo'lsa, bugungi kunda ularning soni 1 million 200 mingdan ortiqni tashkil etadi.

Arxivlar fuqarolarning huquq va majburiyatlarini tasdiqlovchi rasmiy dalildir. Masalan, mulk huquqi mehnat staji, ta'lim yoki harbiy xizmat haqidagi ma'lumotlar ko'p hollarda faqat arxiv hujjatlari orqali tasdiqlanadi.

Arxiv hujjatlari bu - tarix, tirik o'tmish. Ularisnza kechamiz, na bugunimizni va na ertamizni tasavvur qila olamiz. Biz arxiv hujjatlari qadimiy o'zbek zaminini, xalqimiz bosib o'tgan hayot yo'lini, o'tmishini ko'rib, goh hayratga tushamiz, goh armonimiz, goh g'ururimiz ortadi. Shuning uchun arxiv hujjatlari xalqimizning bebaho noyob tarixiy boyligi sifatida asrab-avaylanadi.

Alisher AHROROV, viloyat arxiv ishi hududiy boshqarmasi xodimi.



INDALLOSINI AYTGANDA...

Xudoyor MAMATOV, 1-darajali adliya maslahatchisi, yuridik fanlar doktori, professor.

- Mustaqillikning muqaddas tushuncha ekanini tilda talaffuz qilganda uni dildan tasdiqlay olsak, ozodlik degan so'zning ta'mini his qilsak, uning naqadar totli ekaniga iymon keltirsa - unga bo'lgan haqqoniy munosabatimizni ham mustaqillik manfaatlariga muvofiqlashtirgan bo'lamiz.

Ag'ronliklar orzusi ushalmoqda

1991-yil 1-sentabr ozodlik, o'z taqdirini o'zi belgilash sanasi sifatida xalqimiz qalbiga abadiy muhrlandi. O'tgan 34 yil mobaynida O'zbekiston siyosat, iqtisodiyot, madaniy va ma'rifiy sohalarida beqiyos yutuqlarga erishdi. Bugun yurtimizda zamonaviy maktablar, oliygohlari, ilmiy markazlar bunyod etilmoqda. Yosh avlodning erkin fikrlashi, zamon bilan hamnafas bo'lishi uchun sharoitlar yaratilayotir. Shaharlarimiz, qishloqlarimiz qiyofasi tubdan o'zgardi, yangi yo'llar, sog'lomlashtirish markazlari va boshqa ijtimoiy obyektlar barpo etildi.

Jumladan, Nurobod tumanining eng chekka hududi bo'lgan Ag'ron qishlog'i ham bunday o'zgarishlardan bebahra qolmadi. Qishloqda barcha sharoitlarga ega 120 o'rinni bog'cha qurilib, maskan kelajak avlodning kamoloti uchun xizmat qilmoqda. 7 ming nafarga yaqin aholimizning toza ichimlik suviga bo'lgan ehtiyoji qondirilib, 22 kilometr masofadan ichimlik suvi quvuri tortildi va qishloqdoshlarimizning eng katta muammolaridan biri hal etildi. Xalqimizni quvontirgan yana bir o'zgarish - har biri 240 o'rinni ikkita zamonaviy maktab binosi foydalanishga topshirilgani bo'ldi.

Shuningdek, zamonaviy binoga ega "Ag'ron" oilaviy shifokorlik punkti faoliyati yo'lga qo'yilib, aholiga sifatli tibbiy xizmatlar ko'rsa-



tilmoqda. Qishloq ichki yo'llarining 4,5 kilometr ga asfalt yotqizildi, 4,5 kilometriga tosh-shag'al to'shaldi.

Muhimi, amalga oshirilayotgan bu bunyodkorlik va yaratuvchanlik xalqimizning turmush tarzi, ma'naviyati va madaniyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatyapti. Bu esa inson, jamiyat, davlat manfaatlarini uyg'unligiga erishish yo'lidagi sa'y-harakatlarimizga mazmun bag'ishlamoqda. Yangi O'zbekistonni barpo etish bilan bog'liq islohotlarimiz real hayotda muvaffaqiyatli amalga oshayotganidan dalolat berayotir.

Eshquvvat ESHNAYEV, Nurobod tumanidagi 55-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi.

Янги Ўзбекистон бизни фаол тadbirkорга айлантирди



Ватанимиз мустақиллиги халқимиз учун чиндан ҳам энг улуғ, энг азиз байрам. Бугунги авлод бунинг моҳиятини теран ҳис қилмаслиги мумкин, лекин икки тузумни кўрган биз каби катта авлод вакиллари давлат мустақиллиги, эрк ва озодликнинг қадр-қимматини жуда яхши англаймиз, буни юракдан ҳис қиламиз. Мен бу байрамни яхши кўраман, ҳар йили орзиқиб тутаман, худди Янги йилда бир йиллик ҳаётимизни сурхисоб қилганимиз каби, Мустақиллик байрамида ҳам бир йиллик фаолиятимга назар солиб, нималарга улгурдим-у яна қандай ишларни қилишим керак, деб ўзимга савол бераман.

Кейинги йилларда бундай кечинмалар кўнгилда анча эрта уйғонмоқда. Аниқроғи, давлатимиз раҳбари ташаббуси билан 20 август тadbirkорлар кўни, деб белгиланган бу сана арафасида мен ҳам тadbirkор бўлиб, юртим тараққиётига ҳисса қўша оламанми, Президент ишончига муносиб бўламанми, деган ўй-хаёл тинчлик бермайди.

Беш йилдан буён 20 августда давлатимиз раҳбарининг тadbirkорлар билан мулоқотида қатнашаман. Ҳар сафар бу учрашувдан барча тadbirkорлар янгича руҳ, куч-қувват оламиз. Чунки бу очик мулоқотларда ўз тақдирларимизни билдираемиз, юзага келадиган айрим муаммо ва камчиликларни айтмамиз ва албатта, шу ернинг ўзида Президентимиз томонидан бу масалаларга ечим топиб берилди. Бунинг натижаси мамлакатимиз иқтисодиётининг жадал ривожланиб бораётганида, тadbirkорлик субъектлари сонини кўпайиб, фаолияти кенгайиб бораётганида намоён бўлмоқда.

27 август кўни давлат мукофотларини топириш маросимида Президентимиз кейинги саккиз йилда ялпи ички маҳсулотимиз шиддат билан ўсиб, 115 миллиард АҚШ долларига етгани, Халқаро валюта жамғармаси прогнозига кўра, бу йил иқтисодиётимиз ҳажми 130 миллиард доллардан ошиши кўтилаётганини мамнуният билан қайд этди. Ва биз учун аҳамиятлиси, бундай натижаларга тadbirkорлик кенг қўллаб-қувватланаётгани, замонавий sanoat мажмуалари барпо этилаётгани замин бўлаётгани таъкидланди. Айнан шу каби омиллар туфайли мамлакатимизда sanoat ҳажми 2017 йилдаги 29 миллиарддан бугунги келиб 70 миллиард долларга етказилди.

Давлатимиз раҳбари алоҳида таъкидлаганидек, агар вақтида тadbirkорлик учун қулай шароит яратиб берилмаганида бундай ютуқларга эришиш амримаҳол эди.

Қонимда ишбилармонлик бўлгани учун (раҳматли ота-онам бизни болалигимиздан тadbirkорлик, омиқорлик билан ишлашга ўргатган) кўп йиллар давлат идораларида ишлаб, тажриба орттирган бўлсам ҳам 1992 йилда фаолияти деярли тўхтаб қолган Самарқанд туманидаги экспериментал спорт қайиқлари заводига раҳбар сифатида иш бошладим. Спорт қайиқлари ишлаб чиқаришда ишлатиладиган хомашё Болтиқбўйи ва собик иттифок республикаларидан олиб келинар, улар билан алоқалар эса узилиб қолганди. Спорт қайиқларига ҳам эҳтиёж йўқисо би эди. Ана шундай шароитда заводда бошқа турдаги маҳсулотлар, қурилиш материаллари ишлаб чиқаришга киришдик, бозорни ўрганиб, талабга мос товарлар тайёрлашни ўргандик. Ўзимизда бўлган дастгоҳлар ёрдамида мебель ишлаб чиқаришни йўлга қўйдик. Кейин таълим муассасалари учун ўқув жиҳозлари, спорт инвентарлари, тиббиёт муассасаларига керакли мебел ва бошқа жиҳозларни ишлаб чиқаришни йўлга қўйдик. Шу тарзда эски завод фаолиятини тубдан ўзгартириб, "Стеклопластик" корхонасига асос солидик ва уни оёққа қўйдик. Маҳаллийлаштириш дастури жўрғи этила бошлагач, вилоятимиздаги йирик sanoat корхоналари учун қарийб 20 хил бутловчи қисмлар ишлаб чиқара бошладик.

Ҳозир корхонамизда 200 дан ортиқ ишчи меҳнат қиляпти, 300 турдан кўпроқ маҳсулот тайёрляпмиз. Бир пайтлар тўхтаб қолган спорт қайиқлари ишлаб чиқаришни ҳам яна йўлга қўйдик ва энди хорижга ҳам экспорт қиляпмиз. Умуман, бугун ички бозор-



да ўз ўрнимизни топиб, яқин қўшни давлатларга ҳам таълим ва тиббиёт муассасалари учун жиҳозлар, спорт инвентарлари етказиб беряпмиз. Халқаро сифат сертификатларини қўлга киритдик ва дунёнинг турли давлатларида ўз маҳсулотларимиз билан кўрғазмаларда қатнашяпмиз, буюртмалар оляпмиз. Ҳозир ана бир йирик лойиҳа устида ишляпмиз. Яъни, жаҳон чемпионатлари, Олимпиада ва Паралимпия ўйинлари, нуфузли халқаро мусобақаларда фойдаланиладиган профессионал спорт инвентарлари ишлаб чиқаришни йўлга қўймоқчимиз. Албатта, бунинг ўзига яраша талаблари, халқаро стандартлар мавжуд. Бу борада хориждаги йирик компаниялар фаолиятини ўрганяпмиз ва насиб этса, йил якунига янги лойиҳа асосида маҳсулот ишлаб чиқаришни йўлга қўямиз.

Тadbirkор бўлиб шуни англадимки, агар сизни давлат қўллаб-қувваламаса, ишлашингиз учун шароит ва имконият қилиб бермаса, ҳаракатларингиз ҳамма вақт ҳам қўтилган натижани бермас экан. Шунинг учун юқорида таъкидлаганидек, Президентимизнинг тadbirkорлар билан ҳар йили очик мулоқот қилиши, эркин ва самарали ишлашимиз учун шароит яратиб бераётгани муваффақиятларимизнинг бош омил бўлмоқда. Айниқса, кейинги саккиз йилда мамлакатимизда тadbirkорлик учун яратилган қулай муҳит, имтиёз ва энгиликлар аниқ мақсади ва озгина ҳаракати бор инсонни ҳақиқий ишбилармонга айлантирмоқда. Бунинг учун албатта, иккита иш ўрни яратган тadbirkорни бошига кўтаришга тайёр Президентимиздан миннатдор бўлишимиз керак.

Мен яхши кўрадиган ва ҳар йили орзиқиб кутадиган Мустақиллик байрами бу йил яна ҳам ўзгача, нафақат мен, балки жамоамиз учун юксак эътироф билан ўтмоқда. Байрам арафасида Президентимиз Фармони билан "Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган тadbirkор" унвонига лойиқ кўрилгани ва бу мукофотни шахсан давлатимиз раҳбари қўлидан олишим ҳаётимдаги энг ҳаяжонли лаҳза бўлди. Президентимиз унвонни топириш чоғида тadbirkорлик фаолиятимга муваффақият тилаб, "Сиздан яна кўп янги ташаббуслар кутамиз, сизга ишонамиз" дедилар. Ана шу сўзлар менга янгича куч-ғайрат бағишлади ва бундан буён олдимга яна ҳам катта вазифаларни белгилаб, маррани баланд олиб ишлашга аҳд қилдим.

Ўқтам САИДМУРОДОВ,
Самарқанд туманидаги
"Стеклопластик" МЧЖ қузатув
кенгаши раиси,
Ўзбекистон Республикасида хизмат
кўрсатган тadbirkор.



Дехқон ОНА мукофотланди



Президентимизнинг тегишли фармонларига кўра, Ватанимиз мустақиллигининг 34 йиллиги муносабати билан сармақандлик 17 нафар юртдошимиз давлатимизнинг юксак унвон, орден ва медаллари билан тақдирланди. Хусусан, 100 ёшдан ошган нурунийлар қаторида Нарпай тумани Тепакўрғон маҳалласида яшовчи Хатича Гаданова "Шухрат" медали билан мукофотланди.

Бу йил 103 ёшни қаршилаган Хатича момо бугун Самарқанднинг энг ёши улуғ инсонларидан бири. Умри қишлоқ хўжалиги юмушлари билан ўтган онахоннинг суяғи меҳнатда қотган. Ҳаёти давомида урушнинг азоб-уқубатларини, одамларнинг бир бурда нон топиш учун қанчалар заҳмат чекканларини кўрди, бу қийинчиликларни бошидан ўтказди. Ҳаётнинг ҳамма синовлари, машаққатларини фақат меҳнат билан енгни, турмуш ўртоғи Умир Гаданов билан бирга қолхозда ишлади, эрта баҳордан қаҳратон қишгача далада бўлди. Ўн фарзандни ана шу ҳаёт мурраккабликлари билан вояга етказди, ок ювиб оқ таради. Гарчи 1977 йилда расман пенсияга чиққан бўлса ҳам кейин кўп йиллар хўжаликда ишлади, каттаю кичик орасида "деҳқон она" деган ном олди. Қачонки невар, чеваралари кўпайиб, уларни ўстиришда келинларига ёрдам бериш зарурати туғилганда, далага чиқмай қўйди. Шунда ҳам томорқада айрим юмушларини фарзандлари ва келинларига айтмай, ўзи бажариб қўяверарди.

Тепакўрғонликларнинг айтишича, яқин йилларгача хўжалик раислари, фермерлар ғалла ёки пахтачиликда қайси агротехник тadbirkорни қачон амалга оширишни, йил фаслларига

қараб деҳқончилик мавсумининг қандай келишини Хатича момодан сўраб, кейин ишларга киришар экан.

Айни пайтда момонинг фарзандлари орасида ўзи каби пенсияда бўлганлари ҳам бор. 40 нафардан ортиқ невар, чевара ва эваралари эса катта сулоланнинг муносиб давомчилари бўлиб қамолга етмоқда. Вилоят ҳокими вазифасини бажарувчи А.Бобоев Нарпай туманига, Хатича Гаданова хонадонига бориб, онахонга "Шухрат" медалини Президентимиз номидан топишди ҳамда вилоят ҳокимлигининг совғаларини берди.

Вилоят ҳокими онахон билан сўхбат чоғида инсон қадрини улуғлаш Президентимиз сиёсатининг бош мақсадларидан бири эканлигини таъкидлаб, хусусан, нурунийлар, кекса авлод вакилларига юксак эътибор ва ғамхўрлик кўрсатилаётганини таъкидлади. 100 ёшдан ошган нурунийларнинг давлат мукофоти билан тақдирланиши ҳам ана шу эъзоз, ҳурмат ифодаси эканлигини қайд этди.

Хатича момо ҳам Президентимиздан миннатдорлигини билдириб, бугунги тинч ва фаровон кунлар учун шукрона айтиб яшаш, бу кунларнинг қадрига етиш ва асраб-авайлаш кераклигини таъкидлади.

Bug‘doy navlarini yaratgan olim

davlat mukofoti bilan taqdirlandi

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti agrobiologiya fakulteti dekani, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor G‘ulom G‘aybullayev 25 yildan buyon mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi tizimi uchun malakali kadrlarni tayyorlash, sohaga ilmiy-texnikaviy yangiliklarni joriy etish ishlariga munosib hissa qo‘shib kelmoqda.



Olim 2009-2024-yillar "Jasmina", "Farboma", "Amira" kabi sifatli va o'z amaliy yordamlarini qimmatli bug'doy navlarini yaratdi va ushbu navlarga uchta patent oldi. Keyingi yillarda kuzgi yumshoq bug'doyning "O'zbekiston 30" va "Samarqand", arpaning "Bek" navlarini yaratdi, ushbu navlar Respublika Davlat nav sinash markazida sinallmoqda.

G'ulom G'aybullayev seleksiya va urug'chilik hamda o'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha 2017-yil qishloq xo'jalik fanlari falsafa doktori, 2019-yil seleksiya va urug'chilik ixtisosligida qishloq xo'jaligi fanlari doktori ilmiy darajasiga ega bo'ldi.

Tadqiqot natijalari asosida yaratilgan kuzgi yumshoq bug'doyning "Jasmina", "Farboma" hamda arpaning "Bek" navlari respublikamiz va viloyatda har yili 15 ming gektar maydonda keng ekilib kelinmoqda. Shuningdek, g'allachilikka ixtisoslashgan

fermer xo'jaliklari, klasterlar bilan hamkorlik qilib, o'z amaliy yordamlarini ko'rsatib, bilim va amaliy malakasini oshirib kelmoqda.

U o'z sohasidagi fanlar bo'yicha o'quv jarayonini uslubiy jihatdan ta'minlashda faol ishtirok etmoqda. Jumladan, G'G'aybullayev 2 ta o'quv uslubiy qo'llanma, 2 ta o'quv qo'llanma, 1 ta darslik, 3 ta uslubiy tavsiyanoma va amaliy tavsiyalar muallifi.

Shuningdek, u oliy ta'lim tizimidagi ilmiy kengash a'zosi sifatida o'quv fanlarining yangi standartlarini yaratish, namunaviy o'quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqishda faol ishtirok etmoqda.

Ilm-fan sohasi rivojiga qo'shgan hissasi uchun G'ulom G'aybullayev yaqinda Prezident farmoniga ko'ra "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi. Olimning kelgusi ilmiy va pedagogik faoliyatiga rivoj tayaymiz.

Xurshida ERNAZAROVA.

Dastlabki yutuq va yangi marralar sari qo'yilgan katta qadam



1500 ta mavsumiy ish o'rni yaratilgan. Istiqbolda yangi loyihalarni ishga tushirish hisobiga yana ish o'rinlari yaratish rejalashtirilgan.

Xalqaro bozorda yangi uzilgan meva-sabzavot mahsulotlaridan ko'ra muzlatilgan mahsulotga talab ortmoqda. Bu avvalo, meva-sabzavot mahsulotlarida zararli hasharot va kasalliklar uchrayot-

gani bilan bog'liq bo'lsa, muzlatilgan mahsulotlar bunday xavfdan xoli. Qolaversa, yangi uzilgan mahsulotni 10 kungacha, muzlatilgan mahsulotni esa 2 yilgacha saqlash mumkin. Ya'ni xaridor tabiiy mahsulotni yetkazib berish jarayonidagi sifat buzilishidan ko'ra, muzlatilgan mahsulotni ma'qul ko'rmoqda. Bu usulda

mahsulotning ta'mi va sifati buzilmaydi, iste'mol qilishdagi ishonch ham saqlanib qoladi. Shu bois korxonamizda barcha mahsulotlar qayta ishlanib, muvazalatilgan holda eksport qilinadi.

Joriy yildan Rossiya va Yevropa davlatlari uchun mahsulotni "Dopak" usulida qadoqlash yo'lga qo'yildi. Biz odatda Turkiya, Germaniya, Polshadan keltirilgan uskunalar yordamida mahsulotni qayta ishlab, 10-12 kilogramm holda qadoqlagan bo'lsak, endilikda 300-400 gramli hajmda qadoqlashni boshladik. Ya'ni, avval mahsulotimiz qaysidir ulgurji xaridor tomonidan qayta ishlanib, keyin rastaga joylashtirilgan bo'lsa, endi korxonaning o'zida zamonaviy qadoqlangan mahsulot to'g'ri savdo rastalariga joylashtiriladi.

Xorij bozorlariga muvaffaqiyatli kirib borish, eksport hajmini yildan yilga oshirayotganimiz va O'zbekiston mahsulotlarini jahonga tanitayotganimiz e'tiborga olinib, joriy yil "Tadbirkorlar kuni" arafasida "Faol tadbirkor" ko'krak nishoni bilan taqdirlandim. Men uchun bu dastlabki yutuq va yangi marralar sari qo'yilgan katta qadam bo'ldi.

Azizbek YUSUBOYEV,
Bulung'ur tumanidagi
"SAMARKAND GARDEN PLAST"
mas'uliyati cheklangan
jamiyati rahbari,
"Faol tadbirkor" ko'krak
nishoni sohibi.

**Merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma berish tartibi qanday va u qay tarzda amalga oshiriladi?**

O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma merosni qabul qilib olgan merosxo'rlarga qonun hujjatlariga muvofiq beriladi.

Merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma barcha merosxo'rlarga birgalikda yoki ularning xohishiga bog'liq ravishda har biriga alohida berilishi mumkin.

Notariyuslar voyaga yetmagan yoki muomalaga layoqatsiz merosxo'rlarning mulkiy manfaatlarini muhofaza qilish uchun ularga merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma berilganligi haqida merosxo'rlar yashayotgan joydagi vasiylik va homiylik organlariga xabar

Merosga bo'lgan huquq uchun guvohnoma beriladi

qiladi.

Mol-mulk vorislik huquqi bo'yicha davlatga yoki qonunda nazarda tutilgan hollarda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga o'tgan taqdirda merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma tegishli davlat organiga yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga beriladi.

Notarius qonun bo'yicha merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma berish chog'ida tegishli dalillarni talab qilib olish yo'li bilan meros qoldiruvchining vafot etganligini, meros ochilgan joy va vaqtini, merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma berishni so'rab ariza topshirgan shaxslarning meros qoldiruvchi bilan qonun bo'yicha voris-

likka chaqirish uchun asos bo'ladigan munosabatlari mavjudligi yoki mavjud emasligini, meros mol-mulkning tarkibi va joyini tekshirib ko'radi.

Agar qonun bo'yicha merosxo'rlarning biri yoki bir nechasi vorislikka chaqirishga asos bo'ladigan munosabatlari mavjudligini isbotlaydigan hujjatlarni taqdim etish imkoniyatiga ega bo'lmasa, ular merosni qabul qilib olgan va tegishli isbotlarni taqdim etgan boshqa barcha merosxo'rlarning yozma roziligi bilan merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnomaga kiritilishi mumkin.

Savolga Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Suxrob TURSUNOV javob berdi

Ko'rsatilmagan hujjatlarni talab qilish taqiqlanadi

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-avgustdagi qaroriga asosan ko'chmas mulkni bo'lish va uning yangi chegaralarini belgilash bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentini qabul qilingan.

Mazkur reglament:

- jismoniy va yuridik shaxslarga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan ayrim binolar va inshootlarga yoki ularning bir qismiga bo'lgan huquqning boshqa shaxsga o'tishi munosabati bilan ushbu bino va inshootlar joylashgan mulk huquqidagi yer uchastkalarini;

- mulk huquqida tegishli bo'sh yer uchastkasining bir qismi boshqa shaxsga o'tishi munosabati bilan;
- huquq egasining mulk huquqida tegishli bo'sh yer uchastkasini alohida qismlarga bo'lish bo'yicha murojaatiga asosan ko'chmas mulkni bo'lish va uning yangi chegaralarini belgilash dalolatnomasini (keyingi o'rinlarda — dalolatnoma) rasmiylashtirish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish tartibini belgilaydi.

Ammo bu qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalariga, ko'p kvartirali uy joylashgan va unga tutash yer uchastkalariga, muddatli (vaqtinchalik) foydalanish huquqida bo'lgan yer uchastkalariga, huquqi davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan ko'chmas mulklarga, shuningdek, ko'p kvartirali uylardagi kvartiralar va qurilishi tugallanmagan obyektlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Dalolatnomani rasmiylashtirish bo'linayotgan ko'chmas mulkdagi ayrim bino va inshootlarga yoki ularning bir qismiga bo'lgan mulk huquqlarining boshqa shaxsga o'tganligini tas-

diqlovchi hujjatlari va huquq egalari (vakilining) so'rovnoma-lari yoki ko'chmas mulkka bo'lgan huquq egasining o'ziga mulk huquqida tegishli bo'lgan ko'chmas mulkni alohida qismlarga bo'lish haqidagi so'rovnoma asosida amalga oshiriladi.

Mulk huquqida tegishli yakka tartibda uy-joy bo'lgan ko'chmas mulkni yoki uning bir qismini boshqa shaxsga o'tkazish notarial tartibda amalga oshiriladi.

Uchinchi shaxslar manfaati uchun harakat qilina-yotgan-da so'rovnoma belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma ilova qilinadi.

Davlat xizmatlari markazi tomonidan ariza beruvchidan ushbu bandda ko'rsatilmagan boshqa hujjatlarni talab qilish qat'iyani taqiqlanadi.

Ariza beruvchi davlat xizmatlari markaziga kelib murojaat etganda ularning so'rovnoma markaz xodimi tomonidan to'ldirilib, ariza beruvchi tomonidan tasdiqlangandan so'ng barcha hujjatlari real vaqt rejimida filialga elektron shaklda yuboriladi. Yagona inter-aktiv davlat xizmatlari portali (YIDXP) yoki veb-sayt orqali murojaat qilinganda so'rovnoma avtomatik tarzda filialga yuboriladi.

Davlat xizmati ko'rsatilgani uchun bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari miqdorida yig'im undiriladi.

Davlat xizmati ko'rsatilishi uchun YIDXP orqali murojaat etilganda, ko'rsatilgan xizmatlar uchun yig'im summasining 90 foizi undiriladi.

Alijon ABDISALOMOV, Samarqand shahar davlat xizmatlari markazi yetakchi mutaxassisi.

Фалсафа азалдан муайян тажриба ва заковат талаб қиладиган фан бўлган. Фалсафа – идрокнинг манбаи. Бундан ташқари, дунёнинг бор моҳияти ана шу фан орқали изоҳланади. Эҳтимол шунинг учундир, бу фан билан шуғулланиш унча осон кечмаган. Талабалар ҳам фалсафа тизимидаги фанларга катта хоҳиш билдиришмайди. Аниқроқ қилиб айтганда, дарсликдаги меъёрни ўзлаштириб, баҳо олишга ҳаракат қилади. Биз ўқиганда ҳам шунақа ҳолатга дуч келганмиз.

Дарси ҳам гўзал сабоқ эди

Лекин академик Иброҳим Мўминов яратган мактаб Самарқанд давлат университети тарих ва фалсафа фани мавқеини анча кўтарди десак хато қилмаймиз. Айнан ана шу фанларни яхши ўзлаштирган жуда кўп тенгдошларимиз жамиятда муносиб ўрин эгаллаганлиги фикримнинг исботидир. Тарих факультети, ундаги фалсафа кафедраси жуда катта нуфузга эга эди. Чунки бу ерда жамиятда ўз ўрнини топа олган, дунё моҳиятини пухта англаган, бундан ташқари талабаларга ўз хулосаларини тушунарли тарзда айтиб бера оладиган профессор-ўқитувчилар фаолият кўрсатарди. Эсимдан чиқмайди, мантиқ фанида Мавлон Эгамбердиев деган домламининг (жоилари жаннатдан бўлсин) дарсларини киприк қокмай эшитган пайтларимиз бўлган. Негаки у одам мантиқ инсон шуурининг чироғи эканлигини мисоллар билан исботлаб берарди ва шу фанга эътиборимизни тортарди.

Домла Бахриддин Раҳимов ҳам ана шу тоифадаги устозлардан бири эди. У киши 1950 йилда СамДУ тарих факультетини тугатиб, 40 йилдан ортиқ муддат мобайнида ана шу кадрдон дорилфунунида ёшларга фалсафа, эстетикадан дарс берди. Устозлари академик Иброҳим Мўминов, Аловуддин Баҳоуддинов (Тожикистон) раҳбарлигида илмий ишлар олиб борди, тадқиқотлар қилди, фалсафага оид 60 дан зиёд рисолалар муаллифи бўлди.

Эстетика аслида бу санъатнинг, адабиётнинг, умуман, нафосатнинг фалсафаси дегандир. Борлиқ инсон дидининг ўсишига хизмат қилиши керак. Бунинг учун эса ёшларда гўзалликка ҳавас ва иштиёқ шакллантириш зарур. Домла ўз шогирдларига, яъни бизга айнан ана шу хислатларни ўргатишга ҳаракат қиларди.

Б.Раҳимов эстетика фанидан дарс берарди. Ҳар бир дарсни ўша даврда трендга айланган кино, спектакль ёки кўшиқ моҳиятини, ундан олган таассуротимизни сўрашдан бошларди. Домла инсоннинг гўзаллиги ҳақида фақат мисоллар билан фикр юритарди. Яъни, салом-алик, меҳмон қутлиш, театрда бориш, та-



биатдан, гўзалликдан баҳра олиш, ҳатто китоб ўқиганда ҳайратга тушиб қаби ҳолатларнинг завқли лаҳзаларини моҳирона айтиб берарди. Айниқса, устози академик И.Мўминовга эргашиб, ўртаосиёлик алломаларнинг эстетика, дид, фаросатга оид нақлларини шарҳлашига ҳавасимиз келарди. Шунинг учун ҳам у кишининг сабоқларидан ҳузур олардик.

Домланинг шаҳардаги жуда кўплаб маҳаллаларда дид, фаросат, ахлоқ мавзусида суҳбатлар ўтказганини кўрганман. Овозини ҳеч баланд қилмасди. Сўзларидаги маъно, латофат ҳам бир сабоқ эди. Дарвоқе, устоз номзодлик диссертацияси баҳонасида Киев, Москва,

Таллин, Санкт-Петербург қаби шаҳарлардаги жуда кўплаб халқаро анжуманларда қатнашган, маъруза қилган. Ўз илмий иши доирасида санъатнинг инсон руҳиятига таъсири юзасидан тадқиқотлар ўтказиш баробарида Шукр Бурхонов, Саодат Қобулова, Таваккал Қодилов қаби улўғ санъаткорлар билан яқин мулоқотда бўлган. Улар билан умрининг охиригача борди-келдини узмаган. У киши Муслим Мағмаев, Людмила Зикина қаби дунё таниган санъаткорлар билан суҳбатларини завқ ва шавқ билан айтиб берарди. Умуман, домла ҳаётда ҳам юриш-туриши, муомаласи, эзгу хислатлари билан атрофдагиларга доимо сабоқ бериб турарди.

Домла ҳаёт бўлганларида бугун 100 ёшга тўларди. Бироқ у киши 72 ёшида бандаликни баҳо келтирди. Лекин бу фидойи зиёли ўзидан жуда катта эзгу фазилатлар, ҳароратли сабоқлар, садоқатли шогирдлар, соҳир фарзандлар қолдирди. Қизлари Дилором, Дилбар, Диловар, Дилшоода ота изидан бориб, файласуф олима бўлиб етишдилар. Жамшид, Шавкат ва Ғайрат – истеъфодаги зобитлар, Феруз – тадбиркор. Курсдошим Шавкат айни пайтда вилоятдаги «Шарқ дурдонаси» маданий маркази раҳбари сифатида миллий анъаналаримиз тарғиботи билан шуғулланоқда. Демак, домла орамизда сулоласининг бўй-басти орқали яшаяпти.

Фармон ТОШЕВ, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган журналист.

РЕКЛАМА, E'LO'NLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

ATIB

“IPAK YO‘LI BANKI”

SAMARQAND FILIALI

*barcha yurtdoshlarimizni
eng utug‘, eng aziz bayram*

*Mustaqillik
kuni
bilan tabriklaydi.*

34
yil



Xizmatlar litsenziyalangan.

“MATBUOT UYUSHMASI” MIJOZLARI DIQQATIGA!

“MATBUOT UYUSHMASI” MCHJ orqali obuna uyushtirilgan davriy nashrlar o‘z vaqtida obunachilarga yetkazib berilishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatilgan.

Agar bu borada e’tirozlar, taklif va mulohazalaringiz bo‘lsa, quyidagi telefon raqamlariga murojaat etishingizni so‘raymiz:

+99866-234-94-37, +99866-234-93-96,

+99866-234-94-32, +99866-234-22-53.

“MATBUOT UYUSHMASI” MCHJ MA‘MURIYATI.



DA‘VOLAR BO‘LSA...

Toyloq tumanida xizmat safaridagi Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Latipov Madillo Xamidovichga (2013-yil 17-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Toyloq tumani Beruniy ko'chasi.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum Fozilova Istatga (1997-yil 10-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Abdullaev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani U.Samiyev ko'chasi, 1-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum Hikmatov Ergashga (2021-yil 18-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Abdullaev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani U.Samiyev ko'chasi, 1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Alisher Toshboltayevich notarial idorasida marhum Xoimatova Adolat Odilovnaga (2003-yil 15-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Alisher Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Firdavsiy ko'chasi, 96-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bobomurodov Pirmamat Isomid-dinovich notarial idorasida marhum Axmedov Aliga (2022-yil 13-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum Sobirov Atom Yakubovichga (2012-yil 17-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino ko'chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qo'shatov Akbar Rustamovich notarial idorasida marhum Xamidova Rifoyat Azimovnaga (2023-yil 24-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qo'shatov Akbar Rustamovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 90-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasida marhum Sultonov Talat Axtamovichga (2024-yil 24-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani O'rta-shahri mahallasi.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Xakkulov Bektosh Xamidovichga (2024-yil 10-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Alimov Tuxtamurodga (2017-yil 4-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

So'nggi yillarda Markaziy Osiyo mintaqasi jahonning eng diqqatga sazovor nuqtalaridan biriga aylandi. Ushbu mintaqa davlatlari uzoq vaqtdan beri chegaraviy muammolar, siyosiy ziddiyatlar va iqtisodiy muammolar bilan to'qnashib kelgan edi. Biroq bugun ularning munosabatlari yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

Bu jarayonda esa O'zbekiston yetakchi rol o'ynamoqda. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari asosida Markaziy Osiyo davlat rahbarlari muntazam sammitlarda uchrashib, birgalikda mintaqaviy muammolarni hal qilish yo'llarini izlamoqda. Bu tashabbus O'zbekistonning mintaqadagi nufuzini sezilarli darajada oshirdi. 2018- va 2019-yillarda Toshkentda o'tkazilgan sammitlarda suv resurslarini taqsimlash, chegaralarni aniqlash, transport yo'laklarini yaratish kabi muhim masalalarda aniq kelishuvlarga erishildi. Bu holat mintaqada o'zaro ishonchni mustahkamlab, mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Orolbo'yi mintaqasidagi ekologik vaziyat yildan-yilga og'irlashmoqda. O'zbekiston ushbu masalani jahon miqyosida e'tirof ettirish va hal etishda faollik

Yaxshi qo'shnichilik, hamkorlik va integratsiya

O'zbekiston bu borada faol ish olib bormoqda

ko'rsatmoqda. Mamlakat tomonidan ilgari surilgan ekologik tashabbuslar, jumladan, 2021-yilda Nukusda o'tkazilgan forumlar bu sohadagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi. O'zbekistonning ekologik diplomatiyasi nafaqat mintaqadagi davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi, balki xalqaro jamoatchilikning diqqatini ushbu muhim muammoga qaratishga xizmat qilmoqda. O'zbekistonda tashkil etilgan xalqaro investitsiya forumlari esa mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik manbaiga aylanmoqda. Qo'shni davlatlar va xalqaro investorlar ushbu maydonda o'z imkoniyatlarini oshirishda faol qatnashmoqda. Bu esa Markaziy Osiyoda iqtisodiy integratsiya va taraqqiyotga muhim takliflarni taqdim etadi. Afg'onistondagi vaziyat mintaqadagi xavfsizlik va iqtisodiy rivojlanish uchun katta sinov sanaladi. Bu sinovdan o'tish - Afg'oniston bilan konstruktiv muloqotni



yo'lga qo'yishda ham O'zbekiston muhim rol o'ynamoqda. Xususan, 2022-yilda Toshkent shahrida tashkil etilgan xalqaro konferensiya bu borada mamlakatning mas'uliyatini va tashabbuskorligini yana bir bor isbotladi.

Afg'oniston orqali tranzit yo'llarni rivojlantirish va mintaqaviy savdo-sotiqni oshirish borasida ham O'zbekistonning taklif va amaliy qadamlari yuqori baholanmoqda. Markaziy Osiyoda suv va energetika resurslarini taqsimlash masalalari juda murosasiz va strategik ahamiyatga ega. O'zbekiston

Qirg'iziston va Tojikiston bilan konstruktiv muloqotga asoslangan siyosat olib bormoqda. Mamlakat suv va energetika sohasidagi muammolarni siyosiylashtirmaslik, texnik va iqtisodiy yechimlar izlash tarafdori. Bu yo'l mintaqadagi resurslardan samarali foydalanishga va munosabatlarda barqarorlikka zamin yaratmoqda. O'zbekiston BMT va ShHT kabi yirik xalqaro tashkilotlarda ham mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash borasida faol ishtirok etmoqda. Mamlakatning tashqi siyosatdagi konstruktiv pozitsiyasi va tashabbuslari mintaqadagi barqarorlik va taraqqiyotga xizmat qilmoqda. Hozirgi kunda O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida yaxshi qo'shnichilik, hamkorlik va integratsiya jarayonlarini mustahkamlashda faol yetakchi sifatida tanilmoqda. Mamlakat tashqi siyosatda amalga oshirayotgan samarali va barqaror tashabbuslari, diplomatik faolligi hamda qo'shma loyihalar orqali mintaqadagi nufuzini tobora oshirmoqda. Bu jarayon Markaziy Osiyoning kelajakdagi barqaror taraqqiyoti va hududiy integratsiyasini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonning ushbu yo'nalishdagi faolligi nafaqat mamlakatning, balki butun mintaqaning taraqqiyotiga zamin yaratmoqda.

Yoqubjon MARQAYEV.

Уларни террорчиликда ва миллатчиликда айблашган



1937 йилнинг февраль ойида Самарқандда жойлашган 19-Ўзбек тоғ-отлик дивизияси штаби ўрнашган манзилда чойхоначи бўлиб ишлаётган 36 ёшли Аҳмад охун Жалилов НКВДнинг ушбу ҳарбий қисмдаги алоҳида бўлими томонидан ҳибсга олинади.

УНИ НИМАДА АЙБЛАШГАН ЭДИ?

Аҳмад охун Жалилов гўё ўзи ишлаётган чойхонада дивизияда мавжуд бўлган "аксинкиқлобий-террорчилар гуруҳи"нинг яширин йиғилишлари ўтказилганлигини, ушбу "ташқилот" аъзолари шу ерда учрашиб туришганлигини яширган экан. Қўнғир ишнинг қийғи қирқ йилдан кейин ҳам чиқади, деганларидек унинг ҳибсга олинishi, "аксинкиқлобий-террорчилар гуруҳи"ни фoш этишга киришиш НКВДнинг ушбу дивизиядаги хуфяси Ҳақим Раҳимов исмли кишининг берган хабарига кўра бошланган. Лекин кейинчалик Аҳмад охун Жалилов ҳам, шу иш бўйича ҳибсга олинган бошқа ўнлаб кишилар ҳам терговлар давомида бу шахс билан юзлаштирилмайдди. НКВДнинг дивизиядаги алоҳида бўлими бошлиғи Мишковский, унинг ёрдамчиси Васильев, бўлими ходими Салимов "аксинкиқлобий-террорчилар гуруҳи" ишини бошлади.

Аҳмад охун Жалилов терговнинг ўн бешинчи куни тўсатдан вафот этади. Мишковский ва дивизия тиббий хизмати фельдшери Чурилкин унинг вафоти ҳақида имзолаган далолатномада ёзилишича, Аҳмад охун гуёки ичбурмадан ўлган. Лекин бу ўлим тафсилотларини 1939 йил 10 июлда қайта текширган НКВД лейтенанти Фролов ва Туркистон ҳарбий округи алоҳида бўлими ходими, капитан Лисенко ушбу далолатноманинг ҳақиқатга мос келишига шубҳа билдиради. Чунки Ўзбекистон шароитида ҳаво ҳали совуқ бўлган февраль ойида одамларнинг ичбурма касалига чалиниши деярли учрамайдиган ҳолат эди. Шуниси қизиқки, марҳумнинг жасадини яқинларига ҳам бермай, Мишковский ва фельдшер Чурилкиннинг ўзлари дафн этишган. Бундай ҳолатлар Аҳмад охун Жалилов тергов давомида унга етказилган жисмоний азоблар, жароҳатлардан вафот этганлигидан далолат беради.

Шундан кейин бутун дивизия бўйлаб қатағоннинг қонли ва совуқ изгирини эса бошлади. 1937-1938 йиллар давомида дивизиядан "аксинкиқлобий-террорчи кўзғолончиларнинг миллатчилар гуруҳи" аъзоси сифатида ўнлаб олий ҳарбий маълумотга эга офицерлар, кичик командирлар, оддий аскарлар ҳибсга тортилди. Ана шу вақт ичида дивизиядан 70 киши қамалди, 600 нафар ҳарбий ушбу ташиқлот аъзоси сифатида рўйхатга олинади. Уларнинг деярли барчаси Туркистон фарзандлари – ўзбек, қозоқ, тожиқ, қирғиз, туркман, татар миллатига мансуб кишилар эди.

Уларнинг жоғиали тақдири ҳақида битилган мақолалар билан кейинчалик танишасиз. Куйида қатағон домига тортилган, 19-Ўзбек тоғ-отлик ўқчи дивизиясида хизмат қилган айрим ҳарбийлар ҳақидаги маълумотларни эътиборингизга ҳавола этамиз.

АБДУЛЛАЕВ Абдужалил – 1903 йилда Тошкент шаҳрида туғилган. Самарқандда жойлашган 19-Ўзбек тоғ-отлик дивизиясининг 42-отлик полки биринчи эскадрониде катта сиёсий раҳбар унвониде хизмат қилган. 1938 йил 14 мартда аксинкиқлобий фаолиятда айбланиб, Самарқандда ҳибсга олинган. 1938 йил 10 октябрда СССР Олий суди ҳарбий коллегиясининг қарори билан отувга ҳукм қилинган. Ҳукм шу куни ижро этилган.

АБДУРАҲИМОВ Мўхаммад – 1901 йилда Наманган шаҳрида туғилган. Самарқандда жойлашган 19-Ўзбек тоғ-отлик дивизияси 42-Ўзбек отлик полкининг комиссари бўлиб хизмат қилган. 1937 йил сентябрь ойида аксинкиқлобий фаолиятда айбланиб, Самарқандда ҳибсга олинган. 1938 йил 10 октябрда СССР Олий суди ҳарбий коллегиясининг қарори билан отувга ҳукм қилинган.

АЛИЕВ Мамадали – 1907 йилда Андижон шаҳрида туғилган. Самарқандда жойлашган 19-Ўзбек тоғ-отлик дивизиясининг 41-Ўзбек отлик полкида взвод командири бўлиб хизмат қилган. 1937 йил 16 сентябрда аксинкиқлобий фаолиятда айбланиб, Самарқандда ҳибсга олинган. Ҳарбий унвони лейтенант бўлган. 1938 йил 10 октябрда СССР Олий суди ҳарбий коллегиясининг қарори билан отиб ўлдиришга ҳукм қилинган. Ҳукм шу куни ижро этилган.

ДАДАБОВЕВ Йўлдош – 1901 йилда Қўқон шаҳрида туғилган. Самарқандда жойлашган 19-Ўзбек тоғ-отлик дивизияси сиёсий бўлимининг йўриқчиси вазифасида хизмат қилган. Ҳарбий унвони катта политрук. 1937 йил октябрь ойида аксинкиқлобий фаолиятда айбланиб, ҳибсга олинган. 1938 йил 10 октябрда СССР Олий суди ҳарбий коллегияси қарори билан ўлим жазосига ҳукм қилинган.

ЁҚУБОВ Рўзи Абдуллаевич – 1898 йилда Самарқанд шаҳрида туғилган. 1938 йил 28 майда аксинкиқлобий фаолиятда, бошқа давлатлар разведкаси билан алоқада бўлган, деган айблар билан ҳибсга олинган. Бу вақтда у Ўрта Осиё ҳарбий округи ҳарбий-ҳаво кучлари қўмондони вазифасида хизмат қилган. 1939 йил 23 сентябрда Рўзи Ёқубов СССР Ички ишлар халқ комиссарлиги хузуридаги алоҳида кенгаш қарори билан 8 йил қамок жазосига ҳукм қилинган. 1949 йилда қамок муддатини ўтаб қайтгач, Рўзи Ёқубов яна унга илгари қўйилган айблар билан ҳибсга олинади ва Россиянинг узок ўлкаларига сургун қилинади. Фақат 1955 йилда СССР Олий суди ҳарбий коллегияси унинг ишини қайта кўриб, таркибиде жиноят аломатлари бўлмаганлиги учун ҳаракатдан тўхтатади.

НАРИМОНОВ Юнус Мўсаевич – (унинг ўзи **Ҳожи-зода Юнус Мўсаевич**) – 1898 йилда Тошкент шаҳрида туғилган. Самарқандда жойлашган 19-Ленин орденли ўзбек тоғ-отлик дивизияси сиёсий бўлимининг бошлиғи вазифасида хизмат қилган. 1937 йил 9 сентябрда аксинкиқлобий фаолиятда айбланиб, Самарқандда ҳибсга олинган. Унга "аксинкиқлобий-кўзғолончилар миллатчилик ташкилоти" раҳбари бўлган, деган айб қўйилган. 1938 йил 10 октябрда СССР Олий суди ҳарбий коллегияси томонидан ўлим жазосига ҳукм қилинган.

УМАРАЛИЕВ Ақбарали – 1902 йилда Фарғона вилоятининг Боғдод туманида туғилган. Самарқандда жойлашган 19-Ўзбек тоғ-отлик дивизияси механизациялашган дивизияси сиёсий раҳбари-политрук вазифасида хизмат қилган. 1937 йил сентябрь ойида аксинкиқлобий фаолиятда айбланиб, ҳибсга олинган. 1938 йил 10 октябрда СССР Олий суди ҳарбий коллегияси қарори билан олий жазо - отувга ҳукм қилинган.

ҲАМРОҚУЛОВ Бурҳон – 1902 йилда Қўқон шаҳрида туғилган. Батальон комиссари ҳарбий унвонига эга бўлган. 1924 йилдан ҳарбий хизматда. Самарқандда жойлашган 19-Ўзбек тоғ-отлик дивизияси партия комиссиясининг масъул котиби бўлиб ишлаган. 1937 йил 11 сентябрда аксинкиқлобий фаолиятда айбланиб, Самарқандда ҳибсга олинган. СССР Олий суди ҳарбий коллегиясининг 1938 йил 10 октябрдаги қарори билан ўлим жазосига ҳукм қилинган.

КАРИМОВ Ҳасан – 1903 йилда Наманган шаҳрида туғилган. Самарқандда жойлашган 19-Тоғ-отлик дивизиясида сиёсий ходим вазифасида хизмат қилган. 1937 йил 19 апрелда аксинкиқлобий фаолиятда айбланиб, ҳибсга олинган. 1939 йил охирида, 2 йил 8 ой қамокда ётгандан сўнг унинг иши қайта кўрилиб, айби исботланмаганлиги туфайли қамокдан озод қилинган.

ДАДАБОВЕВ Убайдулла – 1914 йилда Фарғона туманининг Пашкар қишлоғида туғилган. Самарқандда жойлашган 19-Ўзбек тоғ-отлик дивизиясида кичик командир вазифасида хизмат қилган. 1938 йил 28 январда "аксинкиқлобий-террорчилар гуруҳи аъзоси бўлган" деган айб билан ҳибсга олинган. Бир ярим йил қамокда ўтиргач, қайта

текширув пайтида айбсизлиги исботланиб, ҳибсдан озод қилинган.

ТўғизБОВЕВ Собир – 1914 йилда Қозоғистоннинг Қўнғирот туманида туғилган. Самарқандда жойлашган 19-Ўзбек тоғ-отлик дивизиясида кичик командир вазифасида хизмат қилган. 1938 йил 15 апрелда "аксинкиқлобий-террорчилар гуруҳи аъзоси бўлган", деган айб билан ҳибсга олинган.

ТЕМИРОВ Охун – 1914 йилда Фарғона туманининг Қирғизўро қишлоғида туғилган. Самарқандда жойлашган 19-Ўзбек тоғ-отлик дивизиясида кичик командир вазифасида хизмат қилган. 1938 йил 15 апрелда "аксинкиқлобий-террорчилар гуруҳи аъзоси бўлган", деган айб билан НКВДнинг Самарқанд вилоят бошқармаси томонидан ҳибсга олинган.

ҒОФУРОВ Жаббор – 1916 йилда Наманган туманининг Чўст туманида туғилган. Самарқандда жойлашган 19-Ўзбек тоғ-отлик дивизиясида оддий аскар бўлиб хизмат қилган. 1938 йил 5 январда "аксинкиқлобий-террорчилар гуруҳи аъзоси бўлган", деган айб билан ҳибсга олинган.

ҲОШИМОВ Мамадали – 1916 йилда Фарғона туманининг Ёрмозор қишлоғида туғилган. Самарқандда жойлашган 19-Ўзбек тоғ-отлик дивизиясида оддий аскар бўлиб хизмат қилган. 1938 йил 5 январда "аксинкиқлобий-террорчилар гуруҳи аъзоси бўлган", деган айб билан НКВДнинг Самарқанд вилоят бошқармаси томонидан ҳибсга олинган. Икки йил қамокда ётгандан кейин унинг иши қайта кўрилиб, ҳибсдан озод қилинади.

ОРТИҚОВ Ҳолмат – 1914 йилда Фарғона туманининг Ёрмозор қишлоғида туғилган. Самарқандда жойлашган 19-Ўзбек тоғ-отлик дивизиясида кичик командир бўлиб хизмат қилган. 1938 йил 5 январда "аксинкиқлобий-террорчилар гуруҳи аъзоси бўлган", деган айб билан НКВДнинг Самарқанд вилоят бошқармаси томонидан ҳибсга олинган. Икки йил қамокда ётгандан кейин унинг иши қайта кўрилиб, ҳибсдан озод қилинади.

АБДУЛЛАЕВ Ҳасан – 1915 йилда Наманганда туғилган. Самарқандда жойлашган 19-Ўзбек тоғ-отлик дивизиясида оддий аскар бўлиб хизмат қилган. 1938 йил 13 январда "аксинкиқлобий-террорчилар гуруҳи аъзоси бўлган", деган айб билан НКВДнинг Самарқанд вилоят бошқармаси томонидан ҳибсга олинган.

ЙўлдоШЕВ Шариф – 1914 йилда Қўқон шаҳрида туғилган. Самарқандда жойлашган 19-Ўзбек тоғ-отлик дивизиясида оддий аскар бўлиб хизмат қилган. 1938 йил 13 январда аксинкиқлобий фаолиятда айбланиб, НКВДнинг Самарқанд вилоят бошқармаси томонидан ҳибсга олинган.

НИЗОМОВ Аҳмаджон – 1915 йилда Наманган шаҳрида туғилган. Самарқандда жойлашган 19-Ўзбек тоғ-отлик дивизиясида оддий аскар бўлиб хизмат қилган. 1938 йил 13 январда аксинкиқлобий фаолиятда айбланиб, НКВДнинг Самарқанд вилоят бошқармаси томонидан ҳибсга олинган.

ТОҶИБОВЕВ Ўлмас – 1914 йилда Андижон вилояти Избоскан туманида туғилган. Самарқандда жойлашган 19-Ўзбек тоғ-отлик дивизиясида оддий аскар бўлиб хизмат қилган. 1938 йил 13 январда аксинкиқлобий фаолиятда айбланиб, НКВДнинг Самарқанд вилоят бошқармаси томонидан ҳибсга олинган.



Музаффар МУҚИМОВ,
СамДУ тузилмасидаги Қатағон қўрбонлари хотираси вилоят музейи директори.

MATBUOT UYI

Zarafshon

С АМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 13 890 nusxada chop etildi. Buyurtma 411. Hajmi 3 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

F.RO'ZIBOYEV.

Sahifalovchi:


B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

Gazetaning navbatdagi soni 2025-yil 3-sentabr, chorshanba kuni chop etiladi.

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda